



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



КО‘RISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI O‘QITISH METODLARI МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ METHODS OF TEACHING CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENT

Nuriddinova Madina O‘ktam qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maxus pedagogika:

tiflopedagogika” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

nuriddinova2022@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish metodlariga bag‘ishlangan. Maqolada ko‘rish qobiliyatining cheklanganligi bolalarning ta’lim jarayoniga ta’siri, shuningdek, ularning rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida muhokama qilinadi. O‘qitish metodlari sifatida inkluziv ta’lim, multimodal yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, individualizatsiyalashgan o‘quv rejalarining ahamiyati ta’kidlanadi. Ushbu maqola, shuningdek, o‘qituvchilar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi, bu esa ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim olish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Natijada, maqola ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning potentsialini to‘liq ochishga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Аннотация: данная статья посвящена методам обучения детей с нарушениями зрения. В статье рассматривается влияние нарушения зрения на образовательный процесс детей, а также то, как оно влияет на их развитие и социальную адаптацию. Подчеркивается важность инклюзивного образования, использования мультимодальных подходов и технологий в качестве методов обучения, а также индивидуализированных учебных планов. Эта статья также содержит практические советы для учителей и родителей, которые могут помочь улучшить процесс обучения детей с нарушениями зрения. В результате статья служит для разработки эффективных стратегий, направленных на полное раскрытие потенциала детей с нарушениями зрения.

Abstract: this article is devoted to the methods of teaching children with visual impairments. The article discusses the effects of visual impairment on the educational process of children, as well as how it affects their development and social adaptation. As teaching methods, inclusive education, the use of multimodal approaches and technologies are emphasized, as well as the importance of individualized training plans. This article also includes practical recommendations for teachers and parents to help improve the educational process of children with visual impairments. As a result, the article serves to develop effective strategies aimed at fully revealing the potential of children with visual impairment.

Kalit so‘zlar: metod, og‘zaki, ko‘rgazmali, bilim berish manbalariga ko‘ra metodlar, og‘zaki metodlar, hikoya, suhbat, tushuntirish.





Ключевые слова: метод, вербальный, наглядный, методы по источникам познания, вербальные методы, рассказ, беседа, объяснение.

Keywords: method, oral, visual, methods according to sources of knowledge, oral methods, story, conversation, explanation.

Ma'lumki, didaktikaning predmetini o'rgatish, o'rganish hamda ta'lismazmunini tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponsnt bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib, ulardon birontasini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Xo'sh ishni ularni qaysi biridan boshlash zarur?

Ishni o'rganish yoki o'rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda nimani o'rganmoqchimiz yoki o'rgatmoqchimiz degan savol tutiladi. O'rgatish ham, o'rganish ham ularning oxirgi natijasi ham ta'lismazmuniga bog'liq. Nima bilan o'rgatmoh lozim. O'qitish jarayonida turli xil metodlardan foydalaniladi. Bu metodlar, birinchi navbatda, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarining fiziologik va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shubhasiz metod nima degan savol tutiladi. Metod - gregcha so'z bo'lib, yo'l, ahloh usuli ma'nolarini bildiradi. Ma'lumki, metodlar tasniflashi turlicha bo'lishi mumkin. Asosiy didaktik vazifalar va o'qitish jarayoning maxsus xususiyatlariga bog'liq bo'lgan metodlar tasniflashi ham ma'lum.

Bular: o'quvchilarni o'quv materiallarini o'zlashtirishga tayyorlash metodi, bilim olish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo'llash na mustahkamlash, tekshirish metodlaridir. Mantiqiy bilimga mos keluvchi metodlar tasniflanishi ham mavjud: analistik, sintetik, analistik-sintetik, induktiv, deduktiv, induktiv-deduktiv, taqqoslash metodlari, o'xshatish abstraksiyalash metodlari kabilar. O'quvchilarni faoliyatini mustaqilligini va faoliyatini rivojlantirishga diqqatni kuchaytirish bilan bog'liq yana bir metodlar tasniflashi ishlab chiqilgan. Bu metodlar o'quvchilarning bilim faoliyati darajasi, me'yoriga asoslanib yaratilgan. Bu umumiy metodlar tasniflanishdan tiflopedagogikaning nazariy va amaliy jihatlarida ijodiy foydalaniladi. Demak, zamonaviy didaktika ta'limga metodlarini tasniflash turlarini quyidagicha ajratishimiz mumkin:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishda foydalanadigan metodlar o‘ziga xosligi, maxsusligi bilan ajralib turadi. Umumiyligi va maxsus metodlarni qo‘llash zarurati bolalarning bilish faoliyatini xarakteri bilan belgilanadi. Maxsus metodlar: bunda ko‘r bolalar maxsus maktabida o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan ma’lum bir fanni o‘zlashtirish, o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar tushuniladi. O‘quv materialining ahamiyatli tomonlari va shu o‘quv materialini kar bolalar tomonidan o‘zlashtirish xususiyatlariga tayanish, muhim metodologik metodlar, o‘qitishning tashkiliy formalaridan foydalananiladi.⁷

Yuqoridaqgi sxemalardan maxsus ko‘r va zaif ko‘rvuchi bolalar mакtablarida qo‘llaniladigan o‘qitish metodlari haqida umumiyligi tushunchaga ega bo‘ldik.

Ta’limda fan asoslariga o‘qitishning og‘zaki metodlari.


Ta’limning og‘zaki metodlari asosiy sanalib ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida keng tarqalgan.

⁷ Qodirova F.U, Xusnuddinova Z.X. (2023). *Tiflopedagogika*.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Hikoya - o‘quvchilarning bilimlarini muayyan tizimida jonli, o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadigan o‘quv materialini obrazli, emotsiyal bayon qilishdir. O‘qituvchi so‘zi ko‘r va zaif ko‘rvuchi o‘quvchilar bilimlarining muhim manbaidir. Hikoyaning qimmatliligi shundaki, qisqa vaqt ichida o‘qituvchi kattagina hajmli ma’lumotlarni xabar qilishi mumkin. O‘qitish metodi sifatida hikoya o‘quvchilarning bilimlarini yangi amaliy material bilan to‘ldirish zarur bo‘lganida qo‘llaniladi. Ushbu metod barcha sinflarga jami o‘quv fanlarini o‘qitishda ishlatiladi. Butun nutqiy materialni o‘quvchilar asosan eshitib qabul qiladilar. Hikoyaning mazmuni ishonarli va ilmiy tekshirilgan dalillarni o‘z ichiga olish, g‘oyaviy yo‘naltirilgan bo‘lishi bayon qilinayotgan materialning yangilik darajasini, uning dasturiy talablarga javob berishini hisobga olish, hayot bilan atrofdagi voqelik, ko‘r o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan mustahkam aloqasini aks ettirishi lozim. Hikoya mazmun jihatdan tushunarli bo‘lishi kerak. Hikoya ya’ni o‘qituvchining hikoyasi darslikda bayon qilinganning aniq nusxasi bo‘lmasligi kerak, lekin mutlaqo matndan ajralib qolgan bo‘lmasligi lozim.

O‘qituvchi bolalarni hikoya rejasi bilan tanishtirganda hikoya ular uchun tushunarliroq bo‘ladi. Reja hikoyadan bir masaladan boshqasiga o‘tilgandan izchillik bilan yozib boriladi. Hikoyada mantiqqa izchillikka rioya qilish, bosqichlar yoki butunlarni ajratish, o‘quvchilarning eng muhim tomonini ikkinchi darajaligidan ajrata olishlariga imkon yaratish katta ahamiyatga ega. Hikoyaning emotsiyonalligi uning zaruriy xususiyati bo‘lib, ko‘p o‘quvchilarning hikoyadagi obrazlarni to‘liqroq tasavvur qilishlariga, o‘qituvchining bayon qilinayotgan materialga munosabatini qurishlariga ko‘maklashadi.⁸

O‘qituvchining nutqiga qo‘yiladigan talablar nihoyatda muhimdir: nutqi aniq, ifodali, ravon barcha orfoepiya me’yorlariga rioya qilingan bo‘lishi lozim. Hikoya o‘qitishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin: kirish bosqichidagi hikoya yangi materialiga o‘qishga tayyorlash maqsadida, bevosita o‘qitish jarayonida, qabul qilingan materialni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. Hikoya

induktiv va deduktiv yo‘l bilan olib boriladi, so‘ng xulosa chiqariladi. Muayyan umumlashma qoidalarni oldinga suradi, shundan so‘ng ularni aniq misollar bilan dalillaydi.

Darslarda o‘quvchilar o‘zlarining hikoyalaridan foydalanishlari qiymati hisoblanadi.

⁸ R.R.Shomaxmudova, A.Berdieva.(2008). *Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish uslublari*.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘z hikoyasi jarayonida tiflopedagog sinfdagi o‘quvchilarning har birini alohida e’tibor bilan kuzatib borishi lozim. Har daqiqada u o‘zi aytganlarini bolalar qabul qilib, tushunganliklariga ishonchi komil bo‘lishi kerak.

Tushuntirish - so‘zli metodi ishlatilishi jarayonida hodisalar qonunyatlari ochib ko‘rsatiladigan, sabab-oqibat bog‘lanishlari aniqlanadigan so‘zli metoddir. O‘qituvchining tushuntirishida hamisha mulohaza, isbot va xulosalar ko‘p bo‘ladi. Uning tushuntirishi o‘qitilayotgan hodisalar va qonun-qoidalar mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Tushuntirish o‘quvchilarning faol fikrlash faoliyatini nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilarning mustaqilligi, ularning kitob bilan, ko‘rgazmali va didaktik material bilan ishlay olishi muhimdir. Pedagog vazifasi - zaruriy yordam ko‘rsatgan holda bolalarning amaliy va fikrlash faoliyatiga mohirlik bilan boshchilik qilish. Tushuntirish fanlar asoslarini o‘qitish metodi sifatida maktab amaliyotida hikoya, suhbat, ko‘rgazmali va amaliy metodlar bilan birga ko‘riladi.

Suhbat - ta’limning og‘zaki metodlari asosi sanalib tobora keng tarqalgan. Manologik bayondan farqli o‘laroq, suhbat dialogik so‘zlashuv metodidir. Uning qimmati shundaki u tiflopedagogga o‘quvchilar faoliyatini ancha faollashtirishga imkon beradi. Muloqotning savol-javob shakli o‘quvchilarning og‘zaki nutqini

faollashtirishga, o‘z fikrini erkin bayon qilishga imkon beradi. O‘tkazilgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ko‘pincha suhbat xususiyati turlicha bo‘lgan o‘quv materialini o‘qitishning universal metodiga aylanadi, bu esa tiflopedagogik amaliyotdagi jiddiy kamchiliklardan dalolat beradi. O‘quv jarayoning yuqori sifati va samarali bo‘lishini muayyan vazifalarni bajaradigan va o‘quvchilarning har tomonlama bilish faoliyatlarini ta’minlaydigan o‘qitishning har xil xususiyatlari metodlaridan foydalanish yo‘li bilangina ta’minlash mumkin.

Suhbat turlicha pedagogik maqsadlar bilan o‘tkazilishi mumkin. Shunga ko‘ra uning xususiyati va o‘tkazish uslubiyati o‘zgaradi. Jumladan, tiflopedagog amaliyotida kirish tusidagi suhbat keng tarqalgan.

Kirish suhbati - o‘quvchilarning ilgari o‘zlashtirgan bilimlarini dolzarblashtirishga va ularni yangi materialni qabul

qilishga tayyorlashga yordam beradi.

Yangi materialni o‘qitish - jarayonida o‘tkaziladigan suhbat boshqa xususiyatlarga ega. Savollar berish yo‘li bilan o‘qituvchi o‘quvchilarni u yoki bu materialni faol qabul qilish va idroq etishga yo‘naltiradi, hamda to‘g‘ri xulosalar va umumlashtirishga olib keladi.

Material o‘zlashtirilishini tekshirish maqsadida o‘tkaziladigan suhbat o‘ziga xos tarzda tuziladi. O‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarning to‘g‘riligiga, hajmi va chuqurligini aniqlashga yordam beradi. Bilimlarni mustahkamlash bosqichida ularni o‘zlashtirishning mustahkamligini, tizimga solinishini va umumlashtirilishini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ta'minlaydigan suhbat o'tkaziladi. Suhbat o'tkazishda tiflopedagogning savollarni tanlashi va ta'riflashi eng muhim o'rinni egallaydi.⁹

Savollar o'quvchilarining haqiqiy bilimlarini aniqlashgagina emas balki hodisalarning sababiy bog'lanishini o'zaro aloqadorligini tushunib olishga ularning mohiyatini aniqlashga qaratilishi lozim, bu esa o'quvchilarining evriotik izlanishga rag'batlantiradi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish metodlari, inkluziv ta'lim tamoyillariga asoslanib, har bir bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvlarni talab etadi. Ushbu bolalar uchun o'qitish jarayoni, ko'rish qobiliyatini hisobga olgan holda, turli xil multimodal strategiyalarni o'z ichiga olishi zarur. Bu metodlar o'quvchilarining ko'rish qobiliyatiga mos ravishda ta'lim resurslarini, texnologiyalarni va o'qitish usullarini o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova F.U, Xusnuddinova Z.X. (2023). *Tiflopedagogika*.
2. R.R.Shomaxmudova, A.Berdieva.(2008). *Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish uslublari*.
3. [R.R.Shomahmudova.\(2011\)](#). *Maxsus va inklyuziv ta'lim*. Fan va ta'lim.
4. V.S.Raxmanova. (2017). *Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika)*. Niso poligraf.
5. M.U. Xamidova. (2018). *Maxsus pedagogika*. Fan va texnologiya.

⁹ V.S.Raxmanova. (2017). *Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika)*. Niso poligraf.

